

YOSHLARDA LOQAYDLIK VA BEFARQLIKNI OLDINI OLISH OMILLARI

Kenjayev Ulug‘bek Muratovich

Navoiy davlat pedagogika institute erkin izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida inson ongi va qalbi bilan bogliq bo‘lgan, uni isloh qilish, yangilash, ma’naviy-ruhiy «ta’mirlash» kabi jihatlar haqida so‘z yuritilgan va tahlil qilingan. Bu juda katta sabr-bardosh, siyosiy qudrat, siyosiy madaniyat va siyosiy iroda talab etadigan ijtimoiy zarurat ekanligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: fuqaro, jamiyat, tartib, yaxlit, inson, ong, tafakkur, erk, omil, tizim, destruktiv, sharoit, yangilik, siyosiy, ma’naviy, qudrat, shon, sharaf.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится и анализируются аспекты, связанные с человеческим разумом и сердцем, его реформированием, обновлением, духовно-духовным «ремонтом» на пути построения гражданского общества Узбекистана. Проанализировано, что это социальная необходимость, требующая большого терпения, политической власти, политической культуры и политической воли.

Ключевые слова: гражданин, общество, порядок, целое, человек, разум, мышление, воля, фактор, система, деструктивный, состояние, новаторство, политический, духовный, власть, слава, честь.

ABSTRACT

This article discusses and analyzes aspects related to the human mind and heart, its reform, renewal, spiritual and spiritual "repair" on the way to building a civil society in Uzbekistan. It is analyzed that this is a social necessity that requires great patience, political power, political culture and political will.

Key words: citizen, society, order, whole, man, mind, thinking, will, factor, system, destructive, state, innovation, political, spiritual, power, glory, honor.

O‘zbekiston tanlagan yo‘l inson manfaatlari to‘la himoya qilingan, uning erki, ozodligi har tomonlama huquqiy kafolatlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidir. Bu, albatta, inson ongi va tafakurini o‘zgartirish, turmush tarzini yangilash orqali ochiq jamiyatni vujudga keltirishning yaxlit va to‘laqonli tizimini ishlab

chiqishni, mazkur tizimni ijtimoiy amaliyotga yo‘naltirish yo‘riqlarini barpo etishni taqozo etmoqda. Mana shunday sharoitda yoshlar, jamiyatning faol a’zolari ongida turli destruktiv omillar o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ularni quyidagi tartibda belgilash mumkin:

Birinchi omil - eskilik va yangilik o‘rtasida goh oshkora, goh yashirin kechuvchi ziddiyatlar mazmunida namoyon bo‘ladi. Eski tuzum illatlari yashashni istaydi, shu boisdan u o‘z o‘rnini bo‘shatishni xohlamaydi. Yangi tuzum g‘oyalari esa jamiyatni yangilash zaruratidan kelib chiqadi va o‘zgarishlarni hayot-mamot mohiyatiga, har bir fuqaro taqdiriga, ma’naviy va ruhiy ehtiyojiga aylantirib boradi, yangidan shakllanayotgan turmush tarzi va dunyokarashning mohiyatini tashkil etib, uni har jihatdan himoya qiladigan fikr sifatida maydonga keladi. Bu g‘oyaning yashashi va turmush tarziga aylanishi ko‘pincha eskilik illatlari bilan kurashning naqadar og‘ir va hatto iztirobliligi, ba’zi hollarda esa boshi berk ko‘chaga kirib qolganligi kabi holatlar bilan belgilanadi.

Ikkinchi omil — fuqarolar ongi va tafakkurining jamiyatni tubdan o‘zgartirish va yangilash jarayonlariga siyosiy va ma’naviy jihatdan qay darajada tayyorligi omilidir. Mustamlaka davrida ongli ravishda befarqlik, fikriy boqimandalik ko‘nikmalari vujudimizga chuqur singdirilgan bo‘lib, shaxsiy nuqtai nazarlar, individual mulohaza va xulosalar ta’qib ostiga olinar edi. Shu boisdan ham ijtimoiy yangilanishlar muvaffaqiyati shaxsning individual erkinligi, voqelikni nafaqat o‘zlashtiruvchi, balki o‘zining faol ishtiroki bilan uni o‘zgartiruvchi subyekt sifatidagi o‘rni va roliga ko‘p jixatdan bog‘liq.

Uchinchi omil - yangilanishlar tizimini hayotga joriy etish va chuqurlashtirish sharoitida fuqarolarni demokratik jarayonlarni tashkil etuvchi, boshqaruvchi hamda faol himoyachisi sifatida tayyorlash omilidir. Bu o‘ta murakkab, serqirra hamda vaqt talab etadigan hodisadir. Chunki, mustamlakachilik davri illatlaridan qutulish azobini, fikrlab yashash, aql-idrok yo‘rig‘i bilan kun ko‘rish mashaqqatini yengish uchun insonda ichki iroda, ma’naviy qudrat kerak. Ana shu iroda va qudratni uyg‘otish, shakllantirish, unga kuvvat baxsh etish oson ish emas.

O‘zbekiston fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida inson ongi va qalbi bilan bogliq bo‘lgan, uni isloh qilish, yangilash, ma’naviy-ruhiy «ta’mirlash» kabi sermashaqqat yo‘ldan bordi. Bu juda katta sabr-bardosh, siyosiy qudrat, siyosiy madaniyat va siyosiy iroda talab etadigan ijtimoiy zaruratdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev «Ma’naviyatimiz uchun eng katta xavf - bu aksariyat odamlarimizdagи loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat», - degan edi. Bu jamiyatni erkinlashtirish va shu asosda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda eng katta g‘ov bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy holatlardan biridir.

Siyosiy madaniyat, siyosiy ong darajasi jamiyat hayotida inson ishtirokining qandayligini belgilaydi. Zotan, siyosiy madaniyat va siyosiy ong yuksak bo‘lgan joyda odamlar hokimiyat ishida faolroq ishtirok etishadi. Qarorlar qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishadi, munosabat bildirishadi. O‘z hayotlariga daxldor bo‘lgan ma’muriy tadbirlarga befarq qarashmaydi. Aksincha, ularni tayyorlashda ishtirok etishadi, natijada qarorlar ijrosi uchun o‘zlari manfaatdor sifatida mas’uliyatni his qilishadi.

O‘zbekistonda nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini chuqurlashtirishning o‘ziga xos tizimi mavjud. Davlat bosh islohotchi sifatida bunga alohida e’tibor beradi. Bu o‘z navbatida, jamiyatimizda erkinlashtirish jarayonining ko‘lami va miqyosini belgilaydi.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya kilish, uning ehtiyojlarini qondirishda davlat qurilishi, boshqaruv tizimi va jamiyatni erkinlashtirish alohida ahamiyatga ega. Bu borada Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mamlakatning strategik maqsadlarini aniq va ravshan ifodalab berdi va davlat vakolatlarini asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich nodavlat va jamoat tashkilotlari zimmasiga o‘tkazish, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlarining rolini oshirib borish orqali demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish zarurligini namoyot etdi. Ana shu tamoyilning o‘zi fuqarolarning bir jihatdan erkinligi va ozodligini ta’min etsa, ikkinchi tomondan o‘z hayotlarini izga solishga, demakki, jamiyatni boshqarishga ishtiyoyqini kuchaytiradi. Shaxs o‘zini jamiyat hayotining hamma sohalariga daxldor, uning oldida burchli va mas’uliyatlari ekanligini anglab boradi. Bu mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlar singari insonni «isloh» qilish, yangi jamiyat fuqarosini shakllantirish, eski tuzumda tug‘ilib, dunyoqarashlari cheklangan insonni «yangilash», tasavvurini kengaytirish singari «insoniy islohotlar»ning samarasini ko‘rsatadi.

Shuning uchun ham, mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari pirovard natijada chinakam Yangi O‘zbekistondaadolatli jamiyat barpo etishga qaratilmoqda.

Ijtimoiy hayot, mamlakatda yuz berayotgan jiddiy o‘zgarishlar va inson hayoti daxlsizligi omilining chuqurlashuvi shaxsning davlat va jamiyatga bo‘lgan munosabatlariga doir yangidan-yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Odamlar esa ana shu muammolarni birin-ketin hal qilish jarayonida o‘z erki va haq-huquqlarini himoya kilib boraveradi. Jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda aholi «tarbiyalanib», shakllanib, barkamollahib boradi. Ayni paytda biz xuddi ana shunday jarayonlarni boshdan kechirayapmiz.

Yuqoridagi ma'lum bo'lishicha, mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy hayotni, davlat va jamiyat kурilishini erkinlashtirishning yangi konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda quyidagi masalalarga alohida e'tibor berildi:

- demokratik institutlar faoliyatları ko'lamlarini kengaytirish;
- aholining siyosiy faolligini kuchaytirish va siyosiy madaniyatini oshirish;
- jamiyatda manfaatlar, turli xil qarashlar, siyosiy va e'tiqodiy raqobatlar o'rtaсидagi muvozanatni ta'minlash;
- jamoat birlashmalarining hozirgi boskichdagi ijtimoiy mavqeini oshirish;
- siyosiy partiyalari faoliyatini takomillashtirish;
- iqtisodiy hayotni erkinlashtirish;
- davlat qurilishini erkinlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
- hokimiyat bo'linishi prinsipining insoniyat tomonidan umume'tirof etilgan tamoyillarini amalda qo'llash;
- davlat hokimiyati organlarining vakolatini nodavlat va jamoat tashkilotlariga o'tkazish va boshqalar.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yalpi yangilanishlar jarayonida yukoridagi tamoyillar alohida o'rinn tutadi. U demokratiya jarayonlarini chuqurlashtirishda, jamiyatni erkinlashtirishda, fuqarolar siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatni erkinlashtirishning bunday tamoyillari O'zbekistonda vujudga keltirildi va ijtimoiy boshqarishning xalqaro andozalariga muvofiq samarali yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shaxs tushunchasida dastavval insonning jamiyatda tutgan o'rni va bajaradigan vazifalari ifodalanadi. Muayyan ma'noda shaxs - yaxlit jamiyatning alohida olingan ajralmas bo'lagidir. Unda dastavval mavjud ijtimoiy munosabatlar jamuljam bo'ladi. Lekin bu shaxs va jamiyat aynan degan ma'noni bildirmaydi. Shaxs ijtimoiy munosabatlarning dastlabki va birlamchi asosi, ularni keltirib chiqaruvchi manbai hisoblanadi.

Shaxsning madaniy ideali u mansub bo'lgan millat, ijtimoiy guruhda amalda bo'lgan qadriyatlar doirasida shakllanadi va rivojlanadi. Shaxs o'zining madaniy idealini ruyobga chiqarishi uchun turli-tuman ijtimoiy guruhlar doirasida muayyan o'ringa ega bo'lishi va muayyan vazifalarni, rollarni bajarishi lozim. Bular esa shaxsning faolligi tufayli yuz beradi. Qadriyatlarga munosabatni o'zgartirish, uni tiklash, mavqeini oshirish, xalq madaniy mulki sifatida qadrlash masalasi O'zbekistonni yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum talablari doirasida umumiyl isloq xilishning muhim bo'g'iniga aylantirildi. Milliy qadriyatlarni milliy g'urur va iftixorni shakllantirish ishlariga xizmat qildirish, kelajakka qat'iy ishonch bilan karash omiliga aylantirish jarayonlari faollasha boshladi.

Aytish mumkinki, ma'naviyat nafaqat mamlakatimizning ko‘p ming yillik tarixi, ijtimoiy taraqqiyotining barcha jahbalariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan, ayni chog‘da xalqimiz mentaliteti ham ma’naviy qadriyatlar asosida shakllangan va Sharq sivilizatsiyasi bevosita ma’naviyat, ilm-fan, axloq, ruhiy poklik asosida yuzaga kelgan.

Fuqarolarning ma’naviy-ma’rifiy darajasi esa o‘z navbatida jamiyatning umumiyligi holatini o‘zgartiradi. Yangilangan axloqiy yuksaklik va ijtimoiy ong jamiyat taraqqiyotini belgilaydi va yalpi taraqqiyotning yangidan-yangi imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Ko‘pqirrali islohotlar davrida, jamiyat mentaliteti tubdan o‘zgarayotgan, tuzum yangi mazmun va tartibotlarga kirayotgan bir paytda aholi ma’naviy-ruhiy ehtiyojlariga mos keluvchi, xalkni istiqbolga yetaklovchi hayotbaxsh intilishlar ifodasi bo‘lgan g‘oyalar va maqsadlar bilan qurollantirish katta ahamiyatga egadir.

Shunday ekan, islohotlar samarasi xalq dunyokarashi, madaniy va ma’naviy qadriyatlariga ongli munosabati bilan bevosita bog‘lik hodisadir. Agar yangilanishlar odamlar ongi va dunyoqarashi, qalbi va ruhiyati orqali o‘zini namoyon etsa, u yashovchan va samarali bo‘ladi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda davlatning yangilanishlar strategiyasi sifat jihatidan o‘zgarayotgan jamiyat, yangicha tafakkur asosida vujudga kelayotgan ijtimoiy guruahlarning qadriyat mo‘ljallari bilan uyg‘unlashib ketgan.

Madaniyat va ma’rifatning ustuvor hodisa sifatida talqin etilishi ma’naviy voqelik sifatidagi takomillashuv jarayonining chin insoniylik mohiyatini belgilaydi. Inson ayni ana shu qadriyatlar orqali kamolotga yetadi, hayotda, jamiyatda o‘z mavqeiga, o‘rniga, nufuziga ega bo‘ladi. Inson faoliyatları mahsuli ayni ana shu ma’naviyat va ma’rifat orqali qadriyatga aylanadi. Ma’rifatli jamiyatda esa inson, ma’naviyat, axloq, tafakkur mezonlari hal kiluvchi mazmun kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – 457 б.
2. Жўраев Н. Танланган асарлар. – Тошкент: “Sharq”, - 800 б.
3. Гегел Г. Философия права. – М.: Мысл, 1990.
4. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асрараш масъулияти. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2018. – 352 б
5. Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва праксиологияси. – Тошкент: “Маънавият”. 2018. – 456 б
6. Назаров Қ.Н. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. – Тошкент: “Маънавият”, 2019. – 920 б.
7. Назаров Қ.Н. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб – Тошкент: “Маънавият”, 2019. – 924 б.